

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA O'QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI**

Norqulov Odil Oltinbekovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktoranti

E-mail: [odiljon\\_2023@mail.ru](mailto:odiljon_2023@mail.ru)

### **ANNOTASIYA**

Ushbu maqolada mobil ilovalar asosida oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda xorij olimlarining tadqiqotlarining nazariy tahlillari, mobil ta'lif, mobil ilovalardan ta'lif jarayonida foydalanishning nazariyasi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mobil ta'lif, mobil ilova, mobil texnologiyalar.

## **FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASIS OF MOBILE APPLICATIONS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

### **ABSTRACT**

This article provides theoretical analysis of the research of foreign scientists in improving the educational process in higher educational institutions on the basis of mobile applications, mobile education, the theory of the use of mobile applications in the educational process.

**Keywords:** mobile education, mobile application, mobile technologies.

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish jarayoni yildan yilga tezlashib bormoqda. Kompyuterlarning paydo bo'lishi, birinchi shaxsiy kompyuterlar, smartfonlar va boshqa texnologik vositalar taraqqiyoti tarix va inson muhitini tubdan o'zgartirmoqda. Hozirgi kunda jamiyatni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlar, smartfonlar-bu ikki ixtiro hayotimizga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi kuchga ega. Kompyuterlar allaqachon o'quv jarayonida qo'llanayotgan bo'lsa-da, smartfonlar va mobil ilovalarni ko'ngilochar dasturiy vosita deb hisoblashmoqda. Biroq, mobil texnologiyalar, mobil ilovalar ta'lif tizimini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarilarida masalan, ingliz olimlarining adabiyotlarida qariyb 20 yil oldin paydo

bo‘lgan “Mobil Applications” “M-learning” atamalarini ko‘rish mumkin. Xorij olimlari tomonidan Axborot kommunikasion texnologiyalarining istiqboli aynan “Mobil ilova”, (“Mobile Applications”) “Mobil ta’lim” (“M-learning”) jarayonining jadallahuvi bilan uzviy bog’liqligini ko‘rish mumkin. Mobil ilova va mobil o‘qitishning ustuvor jixatlaridan biri bugungi kunda har besh odamdan 4 tasida mobil telefonlarning mavjudligi, hamda mobil aloqalardan smarali foydalanayotganlidadir. Shu bilan bir qatorda mobil telefonlar yordamida internetga simsiz ulanish imkoniyatlari mavjudligi. xalq orasida mobil aloqa va mobil internetdan foydalanish keng tarqalayotganligini quyidagi raqamlarda kuzatishimiz mumkin.

2010-yilda “Mobil fikrlash” xalqaro tadqiqotlariga ko‘ra, 5,3 milliard odam (dunyo aholisining 77 foizi) mobil telefonlarga ega ekanligi, dunyoda 0,5 milliardga yaqin kishi mobil internetdan foydalanish imkoniyatiga ega, bu ko‘rsatkich 2022 yilga kelib to‘rt baravarga oshishi kutilmoqda. Mobil internetdan foydalanayotgan odamlarning beshtadan bittasida 7 G texnologiyasiga asoslangan yuqori tezlikdagi internet tarmog’idan foydalanish imkoniyati bor. Bugungi kunda 300 mingga yaqin mobil ilovalar so‘nggi uch yil ichida ishlab chiqilgan, butun dunyoda bugungi kunga kelib eng mashhur mobil ilovalar o‘yinlar, yangiliklar, xaritalar hamda ijtimoiy tarmoqlar hisoblanadi.

Mobil telefonlar uchun cheksiz internetdan foydalanish dastlab Yaponiyada, AQShda keyinchalik Yevropa va Rossiya Federatsiyasida foydalanish yo‘lga qo‘yligan. Bugungi kunga kelib mobil aloqaning salmog’i 1990-yillar boshidagi kompyuterlarning salmog’idan yuqori bo‘lmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, rivojlanayotgan mamlakatlarda mobil telefon, mobil ilovalarning turli xususiyatlaridan ko‘proq foydalanilmoqda [1]. AQShda 2010 yilgi tadqiqotga ko‘ra, mobil telefon egalari qurilmalarining quyidagi funsiyalaridan faol foydalanishi kuzatiladi: xabarlar yuborish (88%); suratga olish (85%); musiqa tinglash (60%); elektoron pochtadan foydalanish (49%); video tomosha qilish (41%); Word formatidagi hujjatlar yaratish (23%); ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish (21%) ni tashkil qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, mobil ilovalardan foydalanib o‘quv jarayonini takomillashtirish yo‘nalishida foydalanilmayotibdi, ammo xorijiy davlatlarda mobil vositalarini ta’lim jarayonini integrasiyalash yo‘nalishi rivojlantirilmoqda.

Yevropa va Amerika Qo‘shma Shtatlarida 2002 yildan buyon mobil ilovalarni ta’lim jarayoniga tutgan o‘rni to‘g’risida xalqaro konferensiylar, davra suhbatlari, seminarlar o‘tkazilgan. Yevropada 2005 yildan beri “M-learning” xalqaro konferensiysi doimiy ravishda o‘tkaziladi. 2002 yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “MLearnCon” xalqaro konferensiyasida 2011 yilga kelib 600 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi, bu esa 2010 yilga nisbatan 55% ga ko‘p ekanligini ko‘rsatmoqda. Maqsad - ta’lim tizimida mobil qurilmalardan foydalanib o‘qitish metodikasini samaradorligini

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

oshirish bo‘lgan “MoLeNET” xalqaro konferensiyasi Buyuk Britaniyada 2007 yildan beri o‘tkazib kelinmoqda [2].

T.V.Samosenkova, I.V.Savochkina, A.V.Goncharovalarning Мобильное обучение как эффективная образовательная технология на занятиях по русскому языку как иностранному” ilmiy tadqiqotlarida mobil ilovalar asosida rus tili fanini chet tili sifatida o‘qitish o‘rganilgan[3]. O‘quv jarayonida rus tili fanini chet tili sifatida mobil ilovalardan foydalanib o‘qitish qiska vaqt ichida yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatganligi, ekspert guruhi tomonidan o‘tkazilgan tajribada mobil ilovalar orqali mustaqil o‘rganib imtihon topshirgan talabalarning o‘zlashtirish foizi, an’anaviy usulda mashg’ulotlarni o‘rganib imtihon topshirgan talabalarning yakuniy natijalariga qaraganda 13,8% foizga yuqori bo‘lishi, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini mobil ilovalar asosida takomillashtirish - zamonaviy va istiqbolli ta’lim texnologiyasi hisoblanishi asoslangan.

Mobil ilovalar yordamida o‘qitish amaliyoti va nazariyasiga bag’ishlangan yirik xorijiy loyihalarda, e’tiborga loyiq quyidagi ishlaniilar: “Mobil ta’lim tizimi” (The Mobile Learning Network Project - MoLeNET) (Buyuk Britaniya), “Mobil ta’lim muhiti” (Mobile Learning Environment Project-The MoLE) (AQSh), “Hayotiy ta’limda mobil texnologiyalar” (Mobile Technologies in Lifelong Learning: best practices-MOTILL) (Yevropa Ittifoqi), “Mobil ta’lim konsossiumi” (MLearning Consortium) (Kanada) larni keltirish mumkin [4]. Bu anjumanlarda ishtirok etuvchilar soni bo‘yicha yirik xalqaro konferensiya sifatida “Mobil ta’lim tizimi” (MoLeNET) loyixasisni ko‘rsatish mumkin. Unda Buyuk Britaniyadagi 115 ta kollej va 29 ta mакtabni birlashtirib mobil ta’lim uchun yagona virtual maydon tizimni yaratish masalasi keltirilgan. Bungi kunga kelib, ushbu loyixaga 10 mingga yaqin talaba, 7 mingga yaqin pedagoglar jalb qilingan. Ular mobil ilovalarning turli xil imkoniyatlarini taxlil qilish bilan qatorda ulardan samarali foydalanish yo‘llarida ilmiy- tadqiqot olib borishmoqda.

Mobil ta’lim - bu ixcham, ko‘chma mobil qurilmalar va texnologiyalar orqali muntazam ravishda olib boriladigan faoliyat bo‘lib, talabalarga ma’lumotlarni olish yoki yaratish orqali yanada samarali ishlashga imkon beradi [5].

J. Draksler “Current State of Mobile Learning” tadqiqotida mobil ta’lim, mobil ilovalar o‘quv jarayonini butunlay o‘zgartiradi deb ta’kidlaydi, chunki mobil qurilmalar nafaqat materialni taqdim etish va unga kirish shakllarini o‘zgartiradi, balki bilish va ta’limning yangi shakllarini yaratishga ham hissa qo‘sadi. Ta’lim berish jarayoni o‘z vaqtida yetarli va moslashtirilgan bo‘ladi (“just-in-time, just enough, and just-for-me”). Mobil ta’limning ushbu xususiyatlari aralash va elektron ta’lim (yelektron ta’lim) xususiyatlaridan farq qiladi, unda multimedia, strukturalash yoki modullilik, interaktivlik, mavjudlik kabi didaktik tamoyillar ustma-ust chiqishi, mobil

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

texnologiyalar o‘quv jarayonida talabaning ishtirokini o‘zgartirishi, shuningdek, mobil ilovalar asosidagi ta’lim-bu masofaviy yoki aralash ta’limdan farq qiladigan, jamiyatini raqamlashtirishda rivojlanishining yangi turini tavsiflovchi ta’lim shakli hisoblanishi va, shu nuqtai nazardan Mobil21 loyihasi tadqiqotchilari ta’limning ikki shaklini - mobil va aralash - individual (qachon, qayerda va qanday tezlikda) va norasmiy (materiallar taqdimoti, muloqot) o‘rganish tabiatiga ajratadilar[6].

Ko‘pchilik tadqiqotchilar (M.Bransford, J.Duglas, D.Kelli, T.Rekkedal, S.Gedess) elektron va mobil ta’limni farqlash kerakligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, elektron ta’lim va mobil ta’limning asosiy farqi - ma’lum bir auditoriya yoki joyga bog’liq emasligidir. Bu o‘z navbatida o‘quv jarayoni individuallashtiradi. Olimlar (S.Xargardon, S.Geddes, J.Duglas, D.Kelli, M.Bransford va boshqalar.) “How People Learn” tadqiqotida mobil ilovalar asosida o‘qitish zamonaviy pedagogikaning istiqbolli yo‘nalish bo‘lishini ta’kidlagan[7].

Britaniya xalqaro davlat va jamoat tashkilotlarida ijodiy fikrlash, ta’lim tizimlari va innovasiyalarni rivojlantirish bo‘yicha maslahatchi K. Robinson o‘quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy mobil ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish orqali talabalarning bilim olishida texnik vositalarning inqilobiy rivojlanishiga olib kelishi ta’kidlangan[8].

M. Kumari va S. Vikram “Mobile Learning” tadqiqotida mobil ta’limning afzallikkari haqida gapirganda, bunday mashg’ulotlar har bir talabaning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda haqiqatan ham individual ta’lim ekanligini ta’kidlaydi. M-learning axborotdan tezkor foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa ta’lim sifat samaradorligini oshirishga asoslangan. [9].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xorij olimlarinig ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, mobil ilovalar asosida o‘qituvchilar dars vaqtidan unumli foydalanishlari mumkin. Agarda ta’lim oluvchilar mobil ilovalardan foydalanib bo‘sh vaqtlarida ma’ruzalarni tinglasa, yangi materiallarni o‘zlashtirsa dars vaqtida ta’lim beruvchilar bilan yangi g’oyalalar muxokamasiga, o‘zlashtirilgan bilimlar ustida baxs – munozaraga ko‘p vaqt bo‘ladi. Mobil ilovalar asosidagi ta’lim, o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga imkon beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Colley J., DeGani A., Stead G. What in the World Are You Doing with Your Mobile Phone. World Differences in the Use of Mobiles. Cambridge, 2010.
2. Kukulska-Hulme A. Mobile Learning for Quality Education and Social Inclusion. UNESCO IITI. M., 2010.

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

3. T.V.Samosenkova, I.V.Savochkina, A.V.Goncharova. Mejdunarodney elektronney nauchney jurnal. Adres vypuska: pnojournal. wordpress.com/archive19/19-02/ Data publikasii: 30.04.2019.

4. URL:<http://www.mlearning-conf.org/7Sm>. materiale konferensii.  
URL:<http://www.elearningguild.com/mLearnCon/8>  
<http://www.molenet.org.uk/moleconf/learningconference2010/index.aspx>  
URL:[http://www.moleshare.org.uk/main\\_resources.asp](http://www.moleshare.org.uk/main_resources.asp)10URL: <http://www.mole-project.net/about-us> 11 URL: <http://www.motill.eu>)

5. eLearning Guild. Mobile Learning: What it is, why it matters, and how to incorporate it into your learn.

6. Traxler J. Current State of Mobile Learning // M- Learning: Transforming the Delivery of Education and Training. 2009. URL: <http://www.aupress.ca/index.php/books/120155>

7. Bransford M., Douglas J. How People Learn: Brain, mind, experience, and school. Washington (D.C.), 2000.

8. Bawden, D., Robinson, L. The Dark Side of Information: Overload, Anxiety and other Paradoxes and Pathologies.

9. Kumari M., Vikram S. Mobile Learning: An Emerging Learning Trend. HiTech Whitepaper. 2009, no. 11. pp. 18-29.